

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 146 (1472), 2025-yil 18-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Yuksalish pallasi



ISHONCHGA

ASOSLANGAN SARMOYA

INVESTORLAR NIMA UCHUN YURTIMIZGA INTILMOQDA?

Markaziy Osiyoning qoq yuragida joylashgan O‘zbekiston xalqaro investorlar uchun tobora jozibador yo‘nalishga aylanib bormoqda. So‘nggi yetti yil ichida mamlakatimizga 120 milliard dollarlik investitsiyalar jalb qilinib, olti mingdan ziyod korxona tashkil etildi. Xususan, 2024-yilda investitsiyalar hajmi 35 milliard, eksport hajmi esa 27 milliard dollarga yetdi.

Davomi 2-betda



Biz tanlagan yo‘l

DAVLAT VA XALQ BIRLIGI

JAMIYATNI SINMAS, MAMLAKATNI YENGILMAS KUCHGA AYLANTIRADI

Tuproqdan loy qilib, maromiga yetkazib pishirayotgan kulolni kuzatib, inson bejiz undan yaratilmagani haqida mulohaza yuritadi kishi. Chunki kulol qo‘llari bilan ishlov bergani sayin loy yanada mustahkamlanib, shakl-shamoyili, tarovatini o‘zgartirib boraveradi. Usta undan istaganini: sopol, turli buyumlar yoki jarangdor chinni ham yasashi mumkin. Buyumlarning tayyorlanishi loyga qanchalik ishlov berilishi, olovda qizdirilishiga bog‘liq.

Tuproqning boshqa jinslarda bo‘lmagan yana bir xususiyati unumdorligidir. Unga mitti urug‘ qadasangiz, muayyan vaqt davomida ulkan bir daraxtga evriladi. Yaratgan ham inson tanasiga ikki narsa — ruhidan bir parchasini ko‘mib — qalb, miyasiga ilm urug‘ini sepib — ong deb atadi. Tuproqdan yaralishi va mana shu ikki unsur insonni dunyodagi eng buyuk mo‘jiza, mukarram zotga aylantirdi.

Davomi 3-betda



IMKONIYATNI QADRLAGAN MILLAT BUYUK KELAJAKNI QURISHGA HAQLI



Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari

Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarda mamlakatimiz bayrog‘ini baland ko‘tarishga qodirsiz. Sizlar Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Millat taqdiri uning farzandlari qanday ta‘lim olganiga bog‘liq. Ta‘limga ochilgan yo‘l millat kelajagini, millat kelajagi esa tarixning qanday yozilishini belgilaydi. Bugun yangi O‘zbekiston orzulari bebaho, fidoyi va bilimli avlod yurtiga aylanmoqda. Bir paytlar ta‘lim eshigiga yo‘lni paxta dalalariyu qog‘oz uyumi orasidan izlagan avlod chekkan iztiroblar unut bo‘lib ketayotgani bugun yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar behisobligiga bog‘liq. Chunki imkoniyatni qadrlagan millat kelajakni adolat bilan qurishga haqli.



Yaqinda Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvda butun O‘zbekiston yigit-qizlarini qutlug‘ ayyom — Yoshlar kuni bilan samimiy tabrikladi. Mazkur maqolada davlatimiz rahbari nutqidagi ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

So‘nggi yillarda yurtimiz iqtisodiyot, fan va ta‘lim, madaniyat va sport sohalarida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Bugun O‘zbekistonda yaratilayotgan imkoniyatlar, ochilayotgan har bir eshik, amalga oshirilayotgan loyihalar ortida



izlanuvchan va vatanparvar yosh avlodning sa‘y-harakatlari, kuch-g‘ayrati mujassam.

Biz yurtimiz iqtisodiyoti jadal o‘tib borayotganidan faxrlansak, uning zamarida ham yuqori intellektual salohiyatga ega yoshlarning harakati, g‘oyasi, mehnati va jasorati turibdi. Bugungi yurt taraqqiyotidagi har bir yutuqda yoshlarning o‘ni bor va bu faqatgina boshlanishidir. Ertangi rivojlangan, zamonaviy O‘zbekistonni qurishda bosh rol aynan yoshlarga tegishli bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari nutqida bir ma‘lumot qayd etildiki, bu islohotlar boshlangan ilk kunlardan oq “ilm – tarbiya – innovatsiya” zanjirining bugun berayotgan aniq natijalariga isbot bo‘ldi.

O‘tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliyoghlarga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egallagan hamda ilk bor TOP-5 talikdagi oliyoghlarga kirib, tarixiy natija qayd etgani ta‘kidlandi. Shuningdek, bugungi kunda 30 nafar yosh dunyoning TOP-10 talik oliyohida, 500 nafari TOP-100 va 1500 nafari TOP-300dan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olayotgani e‘tirof etildi.

Bu ma‘lumotni hayajonlanmasdan shunchaki o‘qish yoki eshitish mumkin emas. Sababi bu davrlarga yetish uchun qancha yo‘l bosib o‘tildi va qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bugun natijalar bo‘y ko‘rsatmoqda.

Davomi 5-betda



Islohotlar amalda

DAVR O‘ZGARDI: IMPORT EMAS, EKSPORT QILAMIZ

Surxondaryoning sanoatlashayotgan qiyofasi



Shu yil 26-may kuni davlatimiz rahbari raisligida mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi. Yig‘ilishda ta‘kidlanishicha, hozir mamlakatimizda to‘qimachilik, mebelsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida 1 millionga yaqin aholi ishlayapti. Umuman, bugun sanoatdagi mahalliyashtirish yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilyapti.

Joriy yilda Surxondaryo viloyatida mahalliyashtirish dasturi doirasida 41 ta loyiha amalga oshiriladi. Ushbu loyihalar orqali umumiy qiymati 445,5 milliard so‘mlik mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Biznes subyektlari tomonidan tibbiyotda qo‘llaniladigan tabiiy mazlar, steviya dorivor o‘simligini qayta ishlash va qadoqlash, qurilish materiallari, dekorativ oyna, avtomobil moylari, olovga chidamli g‘isht, suv inshootlari uchun ehtiyot qismlar, qamishdan plitka,

agrar sohaga mo‘ljallangan mineral o‘g‘itlar, elektrotexnika hamda charm mahsulotlari kabi qator import o‘rini bosuvchi yangi mahsulot turlari o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan. Ayni paytda ushbu yo‘nalishlarda amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu esa viloyat sanoatidagi ichki ehtiyojni qondirish va importga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishda muhim qadam hisoblanadi.

Davomi 4-betda

SODDALASHTIRILGAN SAVDO – O‘ZBEKISTONNING YANGI RAQOBAT USTUNLIGI

4

Davra suhbatlari

MILLIY SAN‘ATIMIZ UCHUN HAYOTBAXSH HUIJAT

6



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz



Biz tanlagan yo'l

DAVLAT VA XALQ BIRLIGI

JAMIYATNI SINMAS, MAMLAKATNI YENGILMAS KUCHGA AYLAN'TIRADI



Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Mahobatli tog'lar, yashil qir-adirlar, shoshqin daryo, osmonni to'ldirib turgan chaqnoq yulduzlar — butun bir borliq mana shu inson va uning kamoloti uchun yaratilgan. Shu bois, atoqli shoir Erkin Vohidov:

*Sobit o'z ma'nosida, sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrasida karvon o'zing,*

sarbon o'zing,

deya bitgan edi.

Ha, inson tirik mavjudotlar sarboni, u borliq karvoni yo'nalishiga Yaratganning inoyati, qalbi va ongu tafakkuri bilan ta'sir qila oladigan, olamni obod ham, vayron ham etishga qodir noyob maxluqotdir. Tasavvur qiling, ming yillar oldin g'orlarda yashagan odamzod bugun yirik shaharlardagi 50-100 qavatli binolar derazasidan kurral zamanga nazar solib turibdi, minglab kilometr balandlikda parvoz qilmoqda. Inson o'tgan fursat ichida nafaqat o'zi ulg'aydi, balki dunyoi dunni ham misli ko'rimagan darajada o'zgartirib yubordi.

Shams — dil taftingdadir,

sayyoralar kaftingdadir,

Keng jahon zabtingdadir,

bog'bon o'zing, posbon o'zing.

Xo'sh, bunga qanday erishdik? Albatta, birlik, hamjihatlik bilan. Odamlar oila, urug', qabila, jamiyat, davlat, xalqaro tashkilotlar kabi tuzilmalarga birlashishi natijasida muvaffaqiyatli ulug'vorlashib, qudrati salmoqdorlashib boraverdi.

Qilina-yotgan kashfiyot, yangilanish, o'zgarish va taraqqiyot uchun odimlarda xalq, millat, bashar manfaatlarini ilgari surilsa, u yanada ulug'vor hamda boqiy natijalarga erishaveradi. Ammo o'zi yakka hukmron, oila, tabaqqa foydasiga xizmat qilganlarning amallari qumga singgan suvdek g'oyib bo'ldi. Aks holda, o'rta asrlardagi yakkahokimlikka asoslangan qirolik, xonlik va podsholiklar bugunga kelib yer yuzidan supuriilib ketmagan bo'lardi. O'tgan davr mobaynida islohotlar, o'zgarishlar negizida xalq, umuminson manfaatlarini ustun qo'yilgan davlat tuzilmalarini hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Shu bois, antik davrda paydo bo'lgan respublika hamda demokratiya davlat boshqaruvi tizimlari bugun ham eng maqbul va mukammal tuzilma sifatida e'tirof etiladi. Dunyoda 190 dan ortiq mamlakat bo'lsa, shundan 150 ga yaqinida davlat tuzumi respublika ekan ham so'zimizni isbotlaydi. Ayni paytda tuzilmalarning asosiy usuri xalqning saylash huquqi orqali boshqarishidir. “Hozir monarxiya kabi o'zga davlat boshqaruv shakllari yo'qmi?” deyishimiz mumkin. Albatta, bor, ammo ularda ham demokratik tamoyil unsurlari mavjud. Unday tamoyillarga amal qilmaydiganlari taraqqiyotdan ortda qolib, yil sayin kuchsizlanib borayotgan davlatlar sirasiga kiradi.

Zero, borliq insoniyat kamoloti uchun bunyod etilgan ekan, nega inson ongi va his-tuyg'ulari orqali tuziladigan davlat inson manfaatlarini uchun bo'lmisligi kerak! Shoir baytida qayd etganidek, dunyoda sarbon ham, karvon ham xalqning o'zi bo'lishi zarur.

O'zbekiston ham xalq manfaatlarini ustun ko'riladigan, saylov qonunchiligiga asoslangan, adolatlilik, demokratik respublikalardan biri. Xususan, xalqimizning siyosiy irodasi bilan referendum orqali 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida davlat tuzumi qat'iy belgilab qo'yilgan. Unda “O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deya qayd etilgan. Yangilangan Bosh qonunimizga ko'ra, O'zbekiston nafaqat demokratik respublika, balki ijtimoiy davlat hamdir.

Prezidentimizning yaqinda e'lon qilingan “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarorida ham O'zbekiston tobora inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ulug'lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani alohida qayd etilgan. Xo'sh, “ijtimoiy davlat” degani nima, qay tartibdagi tuzilma, uning mazmun-mohiyati, tag-zamirida qanday ulug' maqsadlar yotadi?

Xalq manfaatlarini karrasiga ustun qo'yiladigan ijtimoiy davlat “inson — jamiyat — davlat” tamoyili, ya'ni jamiyat talablari, islohotlar markazida inson manfaatlarini turadigan yurtdir. Demokratik respublikalar haqiqiy adolatlilik ta'minlash, mukarram insonga xizmat qilishning eng maqbul ko'rinishidir.

Ijtimoiy davlat go'zal saodatga eltadi

Ijtimoiy davlat tamoyilida taraqqiyot pillapoyalaridan hech kim qolib ketmasligi maqsad qilingan. Bu yo'lda, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam: bolalar va ayollar, nogironligi bor kishilar hamda ishsizlik va kambag'allik botqog'iga tushib qolgan insonlar moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashiga urg'u beriladi. Ijtimoiy davlat faqatgina xavfsizlik, adolat, jamoatchilik tartibini belgilovchi tuzilma emas, ayni paytda xalqning farovon yashashi uchun javobgar tuzilma hamdir.

Hindiston imperatori Ashoka miloddan avvalgi III asrda ijtimoiy davlat g'oyasini ilgari surgan. U “Barcha odamlar mening farzandlarimdir” va “Mening harakatlaring faqatgina barcha tirik mavjudotlar oldidagi qazirmini ado etish uchundir”, deya ta'kidlaydi. Ashoka urush va zo'ravonlik bilan bosib olishdan voz kechgan.

Aynan ijtimoiy davlat atamasini esa 1870-yildan boshlab nemis ijtimoiy siyosatchilari ishlab chiqqan. Atama Otto fon Bismarckning konservativ islohotlari doirasida joriy etilgan davlatni qo'llab-quvvatlash dasturlarini tavsiflash uchun ishlatila boshlangan.

Ijtimoiy davlat — o'z fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qiladigan va rivojlantiradigan boshqaruv shakli. U teng imkoniyatlar, boylikning adolatlilik taqsimlanishi va fuqarolar orasidagi minimal hayot sharoitlariga ega bo'lmaganlar uchun davlatning javobgarligi tamoyillariga asoslanadi. Albatta, bu, o'z navbatida, davlat va jamiyat taraqqiyotini ham belgilaydi. Chunki xalqning ertasi uchun kim ko'proq foyda keltirishini hech

ortidan katta ijobiy natijalarga erishildi. Ularning har birini sanasangiz, ulkan doston bo'ladi.

So'zga ham poyon bo'lar,

yozsam yana devon bo'lar,

Rustami doston bo'lar,

doston o'zing, devon o'zing.

Davlatimiz rahbari bu borada birinchi o'rinda muammoni yumshatish, chetlab o'tishga harakat qilmay, uni o'z nomi bilan atash kerakligini, ya'ni kam ta'minlangan iborasi emas, “kambag'al” iborasini ishlatish hamda unga qarshi yangi strategiya, usullar bilan kurashish zarurligini bildirdi.

Rostdan ham tog'ni qir degan bilan u pasayib qolmaydi. Uni oshib o'tmasdan esa manzila yetish imkonidir. Kimdir toqqa o'zi tirmashib chiqadi. Kimdir esa qo'ldan tortadigan yoki suyardigan tayanchga muhtoj bo'ladi.

Davlat taraqqiyoti, xalq farovonligi yo'lidan borar ekanimiz, bunday tog'lardan barcha birdek oshib o'tishi zarur. O'sha yillardan boshlab bu yo'lda tizimli, ta'sirchan, ortga qaytmas islohotlar hayotga tatbiq etilyapti.

Jumladan, aholining turli ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qamrab olgan “Temir daftar”, “Ayollar daftar” va “Yoshlar daftar” orqali yurtodoshlarimizning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli imtiyoz va imkoniyatlar taqdim etilishi ularning hayotini yangi bosqichga ko'tardi.

Masalan, o'qish istagidagi yigit-qizlar “Yoshlar daftar”ga kirib, o'quv markazlari to'lovi yoki oliy ta'lim muassasasi kontrakt pullarini to'lash imkoniga ega bo'ldi. Yo bo'lmasa, yolg'iz ayollar yoki kambag'al oila qizlari “Ayollar daftar” orqali tikuvchilik yoki kichik qandolatchilik markazlari bunyod etib, davlatning qo'llovi, o'zining faol harakati bilan risqu nasibasini ko'paytirdi. “Temir daftar” odamlarga moddiy-ma'naviy ko'mak berib, ularning temir irodasini bukayotgan, farovon hayotiga to'siq bo'layotgan uy-joy yoki boshqa birlamchi ehtiyojlarini hal etishda muhim vositaga aylandi.



kim aniq aytib berolmaydi. Daholar shohlardan ham, kambag'al-nochorlar orasidan ham chiqishi mumkin. Modomiki shunday ekan, ilm olish, davolanish, ishlash, dam olish kabi huquqlar barcha uchun bir bo'lsin.

Sen hilol, yulduz, salib, Tavrot,

Zaburdin yuksalib,

Boymisan yoki g'arib, komron o'zing,

yakson o'zing.

Farovon yangi hayot sari ilk odimlar

Prezidentimiz 2021-yil 7-dekabrda Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan nutqida “Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatlilik jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi”, deya e'zgu tashabbusini ilgari surgandi. Bu ibora Bosh qonunimizga shunchaki zikr qilib qo'yilmadi. Balki 2017-yildan buyon ushbu tamoyil asosida qilingan o'zgarish va yangilanishlar samarasi o'laroq shu bosqichga erishildi.

Ijtimoiy davlatning asosiy belgisi turmush farovonligini oshirish uchun xalqning oyog'idan tortib turgan kambag'allik botqog'i hamda uning bu botqoqdan chiqib ketishiga to'siq bo'layotgan ishsizlik muammasiga keskin, ayovsiz kurashdir. Oxirgi sakkiz yil davomida bandlikni ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari hayotga tatbiq etilishi



itarilmagan xalqning davlatga ishonchi ortdi. Qo'shnisi, ota-onasiga shivirlab aytolmaydigan, o'zini qiynayotgan muammolarini davlat idorasiga borib aytaypti va tashvishini aritaypti.

Bugunga kelib ijtimoiy himoya sohasi butunlay yangi bosqichga ko'tarilgan. “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida ijtimoiy sohada katta islohotlar rejali, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va barcha hududlarda uning “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yilishi sohani karrasiga rivojlantirdi. Shuningdek, 65 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordam olish imkonini beruvchi “ijtimoiy karta” joriy etilishi aholiga yanada qulayliklar taqdim etmoqda.

Endi ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yurtodoshlarimiz xat-hujjatlarni qo'ltiqlab turli idoralar eshigiga borayotgani ham yo'q. Mutasaddilarning o'zi ularning uyiga kelyapti yoki turli platformalarda uydin chiqmasdan murojaat yo'lga qo'yilishi sohani karrasiga rivojlantirdi. Shuningdek, 65 dan ortiq ijtimoiy karta”si orqali xizmatlardan foydalanyapti. Bu qulaylik va imkoniyatlar O'zbekistonda ijtimoiy davlatning yorqin namunalariidan biriga aylantirayotgani bor gap.

Aholi bandligini ta'minlashda ham tizimli islohotlar kechmoqda. Bunda, birinchi navbatda, yurtodoshlarimiz malakasini oshirish, kasb-hunarga yo'naltirish, ta'lim olishi uchun qulay sharoitlar yaratish yo'lidan borildi. Jumladan, yosh yigit-qizlarning ayni gullagan, navqiron paytidagi qimmatli vaqtini o'g'irlab, evaziga na bilim, na biror hunar o'rgatmagan kasb-hunar kollejlari faoliyati optimallashtirilib, o'rta maktab ham bilim, ham hunar o'rgatadigan ikki karra manfaatli manzila aylantirildi. Ayniqsa, zamonaviy kasblar — dasturlash, marketing, menejmentni o'rgatadigan IT parklar ochilib, “Bir million dasturchi” kabi amaliy loyihalar hayotga tatbiq etildi. O'tgan davr mobaynida ta'lim bilan birga yoshlarni bozorda talab yuqori kasb-hunarlariga o'rgatish tizimi butunlay o'zgardi, noldan yaratildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



Tadbirkorlik qobiliyati borlarni qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rildi. Shu maqsadda monomarkaz, kovorking markazlar tashkil etildi. Startap loyihalar, kichik va o'rta biznes vakillariga samoviy ajratildi. Tadbirkorlar esa imkoniyatlardan foydalanib, aholining katta qismini ish bilan ta'minladi. Bunday tez samara beradigan mexanizmlardan foydalanilishi qisqa fursatda meva berdi. Bugun mehnatdan

qochmaydiganlar uchun ish topish deyarli muammo bo'lmay qoldi.

Ijtimoiy davlatning yana bir muhim sharti har bir fuqaroga ham jismoniy, ham aqliy qobiliyatini yuzaga chiqarish, o'z ustida ishlab, kichik iste'dodini kamolotga yetkazishiga imkoniyat yaratish hisoblanadi. Bu yo'lda Prezident maktablari, turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan maktablar tashkil etilishi va ularda ta'lim olish huquqi barchaga birdek berilishi muhim qadam bo'ldi. Natijada zukko yoshlar dunyodagi top universitetlar talabasiga aylanmoqda, xalqaro fan olimpiadalarida faxrlari o'rinlarni egallayapti. Bu yutuqlarga erishgan o'g'il-qizlar esa davlatimiz tomonidan munosib rag'batlantirilyapti. Xalqaro maydonlarda sportda erishilgan ulkan yutuqlarimiz bu yo'nalishda ham yuqoridagi kabi imkoniyatlar yaratilgan mevasi.

Ha, bugun O'zbekistonda o'quv muassasalarida xalqaro standartlarga mos tarzda ta'lim olish va dunyoning oldi kompaniyalari uchun ham talabgir kadrga aylanish imkoniyati mavjud. Faqatgina shunga yarasha intilish, g'ayrat-shijoat ko'rsatilsa bo'lgani.

Inson qachon noliydi, hayotdan norozi bo'ladi, qachonki iste'dodi, mehnatiga yarasha muvaffaqiyatga erisha olmaganida. Ammo bugun O'zbekistonda barcha o'z harakatiga yarasha mukofotga sazovor bo'lmoqda. O'qituvchi, shifokor kabi fidoyi kasb vakillarining obro'si ko'tarilaypti. Ilm mash'alini tutgan insonlar millat yo'lini yoritib borayotir.

Minding ilm narvoniga,
chiqding funun osmoniga,
Bu jahon ayvoniga arkon o'zing,
vayron o'zing.

Sinovlarda toblanayotgan tizim

Bir boyvachchaning qizi koronavirusdan vafot etgan otasi haqida gapirar ekan, uning hamma narsasi, milliardlab dollar puli bo'lgani, ammo tekni havo yetishmasligidan bu olamni mangu tark etganini aytadi. Ha, 2019-2020-yillarda dunyoni mahv etgan bu

qolgan yurtodoshlarimizni moddiy tomondan qo'llab-quvvatlashni ham esdan chiqarmadi. Jumladan, Xangiota tumanidagi yuqumli kasalliklar shifoxonasi, shuningdek, Samarqand va Buxoro viloyatlari va boshqa hududlardagi koronavirusni tashxislash, davolash va ilmiy o'rganishga ixtisoslashgan shifoxonalar, tibbiy markaz va laboratoriyalar, karantin hududlari tezkor ravishda tashkil etildi. Davlat ishchilarining oyligi ishga borolmayotgan bo'lsa-da, to'lab berildi.

Bunday tezkor chora-tadbirlar sinovli davrdan kam zarar bilan chiqishimizga hissa qo'shdi. O'sha davrda mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sekinlashdi, ammo to'xtab qolmadi. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz davlatimizga suyanib, davlat xalqning ishonchi, umididan ruhlanib, og'ir davrdan tik oyoqda chiqishga erishildi.

Shuningdek, o'tgan yillar mobaynida yurtimizning turli hududlarida kuzatilgan tabiiy va texnogen fojialardan ham oqilona siyosat, xalqimizning birlamchi evaziga muvaffaqiyatli o'tdik. Zarar ko'rganlar kompensatsiya oldi, moddiy-ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlandi.

Nega bu voqealarni yodga olaymiz? Sababi mana shunday tabiiy, texnogen ofatlar, ommaviy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqirozlar o'zini qanday tutishi, xalqni har tomonlama qo'llab-quvvatlay olishi ijtimoiy davlatning birlamchi belgisidir.

Sinovli yillar boshdan kechirilgan bo'lsa-da, o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha soha va tarmoqlarda rivojlanish yangi bosqichga ko'tarildi. Bugun qonunchilik hujjatlari birinchi galda ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning manfaatlarini inobatga olingan holda qabul qilimoqda. Birgina misol, elektr energiyasi sarfi uchun to'lovda minimal tariflar belgilanishi ham ijtimoiy davlat me'yorlari negiziga uyg'un qarorlardan biri bo'ldi.

Ayniqsa, bugun dunyo miqyosida iqtisodiy buhronlar, siyosiy beqarorlik ayni o'lgan, davlatlar o'rnatilgan muvoinasalar o'zgaruvchan, agressiv ko'rinish kasb etgan murakkab bir sharoitda ijtimoiy davlatning ahamiyati tobora ortib boryapti.

Shunday bir davrda ijtimoiy davlat tamoyillari asosida yashash davlat va jamiyat uchun ham eng maqbul yo'ldir. Chunki davlat xalqni qanchalik qo'llab-quvvatlasa, uning ishonchiga sazovor bo'ladi. Aholida vatanparvarlik ruhi, ming yillik qadriyatlarini hurmat qilish, istiqloq, erkin va farovon hayotning qadriga yetish hissiyoti hukmronlik qiladi, xalq davlatning eng ishonq tayanichiga aylanadi.

Bugun ijtimoiy davlat sifatida O'zbekistonda yuritilayotgan xalqparvar siyosat zamirida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” singari e'zgu, toza bir g'oya mujassam. Bu esa yurtodoshlarimizning tom ma'noda turmushi farovonlashishiga tamal toshi bo'lmoqda va ularning hayotdan rozi, nafaqat o'zi, balki butun xalq kelajagi porloq bo'lishiga komil ishonch bilan umrguzaronlik qilishiga xizmat etyapti.

Barcha islohotlar markazida inson manfaatlarini turgan davlat va uning mustaqilligi umrbog'iy bo'ladi. Hayot qonuniyati shu: davlat xalqdan, xalq esa davlatdan kuch oladi. Har qanday vaziyatda xalqiga suyanish, ishoncha olish davlat va jamiyatni sinmas, yengilmas katta kuchga aylantiradi. Bugun mustaqil O'zbekiston ham ortga qaytmas islohotlar ila xuddi shu yo'ldan idgaklamqda.

Sobit-ul sayyorada inson o'zing,
inson o'zing,
Mulki olam ichra bir xoqon o'zing,
sulton o'zing.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz



Islahotlar amalda

DAVR O‘ZGARDI: IMPORT EMAS, EKSPORT QILAMIZ

Surxondaryoning sanoatlashayotgan qiyofasi

Boshlanishi 1-betda

Surxon vohasining imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun qo‘shni davlatlar bilan chegaradosh va chekka hududlarda yangi korxonalar qurilmoqda. Bunga Termiz tumani Ayritom mahallasidagi bazalt xomashyosidan mineral vata ishlab chiqarish loyihasini misol qilish mumkin. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 26 million dollar bo‘lib, korxona yiliga 30 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yil davomida 345 milliard so‘mlik tayyor mahsulot bozorga chiqariladi degani. Quvonarlisi, korxonada 320 kishi uchun ish o‘rni yaratiladi.

— Korxonamizni qurishda mahalliy va xorijlik mutaxassislar hamkorlikda ish yuritmoqda, — deydi korxona ish boshqaruvchisi Mahmud Xolmatov. — Loyiha Xitoy, Turkiya va Tailand davlatlarining yuqori samaradorlikka asoslangan zamonaviy texnologiyalari bilan jihozlanyapti. Hozir barcha mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarini montaj qilish ishlari o‘z poyoniga yetmoqda. Yana ikki-uch oyda bu ishlarni yakuniga yetkazib, korxonani foydalanishga topshiramiz.

Oltinsoy tumanidagi Vaxshivor tog‘larida 60 gektar yer samarali o‘zlashtirilmoqda. Ana shu hududdan qazib olinayotgan bazalt va golomit toshlari qayta ishlash uchun sanoat korxonasiga yetkazib berilmoqda.

Korxonaga olib kelingan toshlar maxsus texnologiyalar yordamida maydalaniib, yuqori haroratda eritiladi. Natijada jahon standartlariga mos mineral vata va qurilishda keng qo‘llaniladigan turli mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Bu mahsulotlar issiqlik va sovuqni saqlashi,

shovqinni kamaytirish xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shu jihatdan ular qurilish sohasida ekologik toza va samarali yechim sifatida yuqori baholanmoqda. Yana bir gap, korxonada xorijlik malakali mutaxassislar ham faoliyat yuritmoqda.

— Hozir ushbu korxonada bazalt xomashyosidan qurilish materiali ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarni montaj qilyapmiz, — deydi xitoylik mutaxassis Sadu Jou. — Bugungi kungacha o‘zim ishlayotgan jamoa bilan birga katta qozonni o‘rnatib, ishlashga tayyor qilib qo‘yidik. Korxona uchun zamonaviy, energiya tejamonkor qozon tanlangan. Bu ishlab chiqarishda sifat va samaradorlikni oshiradi. Aytish kerakki, bu yerda ishlash menga yoqdi. Chunki ahil, quvnoq, yuqori malakali mutaxassislar jamoasida ishlash doim yoqimli.

Ushbu loyiha hududning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirib, eksport hajmi ko‘payishiga xizmat qiladi. Qolaversa, korxona yirik soliq to‘lovchiga aylanadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyiha sabab mahalliy byudjetga soliq tushumi 20 milliard so‘mgacha ko‘payadi.

Termiz erkin iqtisodiy zonasida import o‘rmini bosadigan mahsulot ishlab chiqaradigan qator istiqbolli loyihalar rejalashtirilgan. Jumladan, Prezidentimiz 2024-yilning 22-noyabr kuni Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazgan edi. Mazkur yig‘ilishda mas‘ullar oldiga hududda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash borasida qator vazifalar qo‘yilgandi.

Erkin iqtisodiy zonadagi yirik biznes subyekti yiliga 17 million dollarlik import o‘rmini bosadigan qurilish jihozlari ishlab



“

Erkin iqtisodiy zonadagi yirik biznes subyekti yiliga 17 million dollarlik import o‘rmini bosadigan qurilish jihozlari ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, beshta davlatga 4 million dollarlik 4,5 ming tonna tayyor mahsulot eksport qilinadi.

chiqaradi. Shu bilan birga, beshta davlatga 4 million dollarlik 4,5 ming tonna tayyor mahsulot eksport qilinadi.

Qurilish obyektlarining muhim komponenti bo‘lgan oyna mahsulotlari ilgari Surxondaryoga chetdan import qilinardi. Denovlik tadbirkor 1 million 250 ming dollarga teng mablag‘ evaziga oynaga ishlov berish korxonasini tashkil etdi. Korxonada oyna mijoz taklifiga ko‘ra turli o‘lcham va shaklga keltiriladi.

— Denov tumanida ham sanoatni mahalliyashtirish doirasida samarali loyihalar amalga oshirilmoqda, — deydi tadbirkor A.Halimov. — Quvonarlisi, korxonamiz sabab ishsiz va ro‘zg‘or tebratish uchun xorijga ketishga majbur bo‘lgan fuqarolar endi mahallasida, oilasidan olis ketmay mehnat qilyapti. Bu yangi O‘zbekistondagi yangilanishlar oddiy odamlar hayotida qanchalik ijobiy o‘zgarish yasaganiga yaqqol misoldir.

Ehtiyoj yuqoriligi bois, Termiz shahrida ham oyna ishlab chiqarish va unga ishlov berish korxonasi faoliyat yuritmoqda. Natijada oyna importining hajmi ancha qisqardi.

— Ushbu loyihaning qiymati 3 million dollari tashkil etadi, — deydi korxona menejeri Turdimurod Karimov. — Yillik ishlab chiqarish hajmi esa 30 million kvadrat metрни tashkil etadi. Bugungi kunda turli o‘lcham va rangdagi 20 turdan ortiq oyna mahsulotlari ishlab chiqarilib, eksportga ham yo‘naltirilmoqda. Bu o‘z-o‘zidan

Surxondaryoning iqtisodiy o‘shishiga va aholi farovonligiga xizmat qilyapti.

Termiz shahri sanoatlashgan hududga aylandi. Hozir bu yerda talab va taklif, ichki va xorij bozorlarining dinamikasi muttasil o‘rganiladi, tahlil qilinadi. Shu tufayli bozorbop

tovar ishlab chiqarish g‘oyasi ilgari suriladi. G‘oya ijobati bilan muhim bo‘lganidek, bugungi kunda qurilishda zarur material hisoblangan polistirolli va mineral vatali sendvich panellari Termizda keng miqyosda ishlab chiqarilaypti.

— Sendvich panellari ilgari Surxondaryoga



Sarvar TO‘RAYEV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Tahlil

SODDALASHTIRILGAN SAVDO — O‘ZBEKISTONNING YANGI RAQOBAT USTUNLIGI

Zamonaviy iqtisodiyotda tashqi savdo mamlakatning taraqqiyot darajasini belgilab beradigan asosiy ko‘rsatkichlardan biriga aylandi. Milliy iqtisodiyotning jahon bozori bilan qanchalik chuqur integratsiyalashgani, qonunchilikning shaffof va ochiq ekani, raqamlashtirish jarayonlari qay darajada ilgirilgani davlatning xalqaro maydondagi imiji, jozibadorligi va salohiyatiga bevosita ta‘sir qiladi.

Bugungi kunda global iqtisodiy tizimda raqobatdosh bo‘lish uchun faqat resurslar yetarli emas, balki endi institutsional samaradorlik, inklyuziv oqimlarini boshqarish qobiliyati, axborot iqtisodiy model va raqamli infratuzilmaning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, savdo jarayonlarini raqamlashtirish va soddalashtirish, ortiqcha rasmiyatchilikni qisqartirish, biznes va davlat o‘rtasida ochiq mulohazani ta‘minlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning samarasi BMning Raqamli va barqaror savdo tartibini soddalashtirish bo‘yicha global tadqiqoti (UNTF Survey) natijalarida aks etdi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari tomonidan tahlil qilingan mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 92,47 foizlik ko‘rsatkich bilan

nafaqat mintaqada, balki bir qator rivojlangan davlatlardan ham ilgariyladi.

Ushbu tadqiqot har ikki yilda bir marotaba o‘tkaziladi, 180 dan ortiq davlatni qamrab oladi va mamlakatlar tashqi savdoda qay darajada zamonaviy raqamlashtirish standartlarini qo‘llayotganini, shaffoflikni ta‘minlayotganini va byurokratiyani qisqartirayotganini baholaydi.

Tadqiqotning asosiy ko‘rsatkichi — Savdo tartibini soddalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilish koeffitsiyenti (Trade Facilitation Score) bo‘lib, u 62 ta yo‘nalish bo‘yicha mamlakatning umumiy yutuqlarini aks ettiradi. Ushbu yo‘nalishlarga Jahon savdo tashkilotining Savdoni soddalashtirish bo‘yicha bitimi (TFA) qoidalar, shuningdek, qog‘ozsiz savdo, transchegaraviy elektron savdo va “yashil” savdoni soddalashtirishga doir yangi mintaqaviy va global tashabbuslar kiradi. Tadqiqot doirasida, shuningdek, kichik biznes



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



va ayol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, savdoda keng va inklyuziv ishtirokni ta‘minlovchi chora-tadbirlar ham o‘rganilgan.

O‘zbekistonning natijalarida aks etganidek, mamlakat bugun tashqi savdoni faqat boshqarish obyekti sifatida emas, balki uni milliy taraqqiyotning markaziy ustuni sifatida

ko‘rmoqda. 2023-yilda 84,95 foizlik umumiy ko‘rsatkich qayd etgan bo‘lsa, bu yil natija 7,5 foiz punktga o‘sdi va 92,47 foizga yetdi. Ayniqsa, shaffoflik (100 foiz), qog‘ozsiz savdo (96,3 foiz), bojxonadagi rasmiyatchilikni qisqartirish (95,83 foiz) va transchegaraviy qog‘ozsiz savdo (88,89 foiz) bo‘yicha yuqori natijalar qayd etildi. Institutsional hamkorlik

“

TADQIQOTNING ASOSIY KO‘RSATKICI — SAVDO TARTIBINI SODDALASHTIRISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLARNING AMALGA OSHIRILISH KOEFFITSIYENTI (TRADE FACILITATION SCORE) BO‘LIB, U 62 TA YO‘NALISH BO‘YICHA MAMLAKATNING UMUMIY YUTUQLARINI AKS ETTIRADI.

sohasida ham o‘shish mavjud (66,67 foiz), bu esa kelgusidagi islohotlar uchun katta salohiyat borligini ko‘rsatadi.

Bu natijalarga olib kelgan muhim omillardan biri “Yagona darcha” tizimining keng joriy etilishi bo‘ldi. Endilikda tadbirkorlar uchun eksport va import operatsiyalari doirasidagi ko‘pgina hujjatlar, ruxsatnomalar, sertifikatlar elektron tizim orqali olinadi. Davlat organlari o‘rtasida elektron hujjat aylanmasi kengayib, aholi va biznes uchun davlat xizmatlariga elektron kirish imkoniyatlari ortmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat vaqt va xarajatni tejamoqda, balki insonni qadrlaydigan boshqaruv falsafasini shakllantiryapti. Savdoni raqamlashtirish endi faqat texnik qulaylik emas, balki kengroq ma‘noda fuqarolik jamiyati, shaffof boshqaruv, ochiq iqtisodiyot va investitsiya muhitini yaratish deganidir.

UNTF Survey 2025 natijalari O‘zbekiston uchun xalqaro ahamiyatga ega ishora bo‘ldi. Bu natijalar mamlakatni global yetkazib berish zanjirlariga faol jalb etishga, xalqaro hamkorlarning ishonchi ortishiga va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon, shubhasiz, Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish sari olib borilayotgan harakatlarga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston uchun savdo faqat tovar va xizmatlarning almashinishi emas, balki insonlarning o‘z hayotini osonlashtirish,

import qilinardi. Hozir bunday mahsulotlarni o‘zimiz ishlab chiqaryapmiz, — deydi korxona operatori Norbek Ahmedov. — Ushbu loyihaning umumiy qiymati 1 million dollari tashkil qiladi. Yillik ishlab chiqarish quvvati esa 790 ming kvadrat metr.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar hududlarda zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, xalqaro bozorda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni ishga tushirib, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Darhaqiqat, keyingi yillarda sanoat korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash borasida Surxondaryoda samarali ishlar bajarilmoqda. Xususan, Jarqo‘tg‘on tumanida ham ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga alohida e‘tibor berilyapti. Buning amaliy ifodalaridan biri avtoklab usulda gazoblok qurilish mahsulotini ishlab chiqarish loyihasidir. Umumiy qiymati 35 milliard so‘m bo‘lgan obyekt tomonidan bugun viloyatimizdagi barcha qurilish inshootlariga zarur mahsulot turli yetkazib berilmoqda.

Muzrabot tumanida esa tadbirkor qamishni maydalab, yiliga 150 ming kub metr yog‘och qirindili plita ishlab chiqarmoqda. Ushbu loyiha sabab 110 dan ortiq ish o‘rni yaratilgan.

— Azaldan ota-bobolarimiz qamishdan uy-ro‘zg‘or buyumlarini tayyorlagan. Ammo sanoat kirib kelgach, bunday buyumlarga ehtiyoj yo‘q degan qarash shakllandi. Bugun davrning o‘zi oldimizga shu kabi tabiiy boyliklardan samarali foydalanish zaruratini qo‘ymoqda. Texnologik taraqqiyot qamishdan ham zamonaviy va yuqori standart talablariga javob beradigan qurilish xomashyosi tayyorlash imkonini berdi. Muzrabot tumani Amudaryoga yaqin. Daryo sohilida qamish ko‘p o‘sadi. Shu paytgacha qamishga keraksiz o‘simlik deb qaraganmiz. Odamlar yozda uni yoqib yuborib bo‘lsa ham yo‘qotishga urinardi. Bugun esa bunday fikr, qarashlar umuman o‘zgardi. Tumanimizda tashkil etilgan korxona fikrimiz isboti. Bu korxona tumanimizning yuzlab yoshlarini ish bilan ta‘minladi, — deydi muzrabotlik jurnalist Abdusalom Yo‘ldoshev.

Mazkur korxonada maydalangan qamishdan “Qamish qirindili” va “Yog‘och qirindili” plitalari ishlab chiqarilmoqda. Loyiha uchun 19 million dollar sarmoya kiritilgan. Shundan 7 million dollar xorijiy investitsiyadir. Shu mablag‘ evaziga korxona zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan.

— Korxonamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 30 foizi ichki bozorga, 70 foizi eksportga yo‘naltiriladi. Ishlab chiqarish liniyasi to‘la quvvatda ishlasa, yiliga 2 million 500 ming dollarlik mahsulot eksportga yo‘naltirilishi va bu orqali 2 million dollarlik importni kamaytirishga erishiladi, — deydi korxona bosh muhandisi Abbas Nabiyev. — Keyingi yilda korxonamiz tomonidan mahalliy yuzlag qog‘shimcha 3,3 milliard so‘m soliq va boshqa yig‘imlar tushishi kutilmoqda. Yillik so‘f daromad salmog‘i esa 15 milliarddan ko‘p bo‘lishi reja qilingan.

Surxondaryoning shahari qishloqlarida eng ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan tarmoqlar barpo etilmoqda. Natijada ichki bozor talabi to‘liq ta‘minlanib, aholi ehtiyojidan ortgan mahsulotlar xorij bozoriga chiqarilmoqda. Bir viloyat, tuman, hudud kesimida sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining bunday yuqori sur‘atlar bilan o‘shishida esa yangi korxonalarning ishga tushirilishi, mavjudlarida modernizatsiya, texnik va texnologik jihatdan yangilash ishlarning amalga oshirilayotgani muhim omil bo‘lmoqda.



Sardor TOLLIBOYEV,

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari

IMKONIYATNI QADRLAGAN MILLAT BUYUK KELAJAKNI QURISHGA HAQLI



Abu Bakir O‘ROZOV,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Aslida, bugungidek to‘g‘ri ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilganida bu kabi natijalarga mustaqilligimizning ilk davrlarida erishish mumkin bo‘lardi. Afsuski, umrini paxta dalasida o‘tkazgan oddiy oila farzandlari ilmda, sportda va boshqa sohalarida bunday yuksak marralarni egallashini tasavvur qilish ham qiyin edi.

Sababi nimada? Sababki...

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir yigit Prezidentimizning Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirdagi nutqini eshitib, og‘riqli muammoni esga oldi. O‘zi ayni paytda chet elda mehnat migranti bo‘lib ishlab yurgan yigit yurtimizdagi o‘zgarishlarga chin ma‘noda havas bilan qarayotgani, bugungi kun yoshlariga berilayotgan e‘tibor nega ularning davrida bo‘lmaganidan xafaligini bildirgan.

Bugungi kun yoshlari dunyoning eng nufuzli oliyog‘hlariga o‘qishga kirib, tahsil olayotganidan juda havasdaman. Men o‘z vaqtida yurtimizda oliy ta‘lim dargohiga o‘qishga kirish uchun imtihon u yodda tursin, hujjat topshira olmaganim. Maktabni tugatib, institutga hujjat yig‘ishga kirishganimdan boshlangan qiyinchiliklar tinkamni quritgan. Ikki marta imtihondan emas, qabul komissiyasiga hujjat topshirishdan o‘tolmaganman. Unisi yo‘q, bunisi kam deb qaytaraverib, o‘qishdan sovitib yuborishgan. Barchasiga qo‘l siltab, chetga ishlashga ketganman. Bizni o‘sha paytdan mardikorlikka tayyorlashganmi deb o‘ylab qolaman. Sizlarga havasdaman, yoshlar, — deb izoh qoldirgan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi.

Darhaqiqat, bugun yurtimizda yoshlar oliy ta‘limga hujjat topshirish jarayonini telefon orqali amalga oshirayotgan bir paytda o‘sha davrlarni eslash og‘riqli. Lekin boshqa tomondan, bu taqqos yoshlarimizda bugungi qulay sharoitlar, keng imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadini mustahkamlaydi.

Bugungi kun yoshlari tasavvur qilishi qiyin, lekin bundan to‘qqiz, o‘n yil oldin o‘qish stagida bo‘lganlar oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish uchun qabul komissiyasiga kelishi shart edi.

Abituriyent degan tamg‘ani bo‘yniga osib olgan yigit-qizlarning azobli kunlariga o‘sha vaqtdan “start” berilardi. Institut va universitetlarga hujjat topshirish tizimi shunchalik murakkab qilib qo‘yilgan ediki, yoshlarning bilim olish, yuksak ilm cho‘qqilarini zabt etish haqidagi nafs istagi ilk kunlardan nafrat va g‘azab otlig‘ tuyg‘iga almashardi.

Har yili iyun oyi kelishi bilan yurtimizdagi har bir xonadonda bitiruvchi o‘g‘il-qizlar uchun “imtihon mavsumi” boshlanar, abituriyentlar hujjatlarini qog‘oz shaklida, qo‘ltig‘ida papka bilan surat va tibbiy ma‘lumotnomalar yig‘ishdan boshlardi.

Abituriyent tibbiy ma‘lumotnoma uchun poliklinikada, surat uchun studiyada, ma‘lumotnomani tasdiqlash uchun maktab direktori yoki mahalladan ruxsat olishi shart edi. Hujjat olish jarayoni 4-5 kun vaqt talab qilar, hujjat yig‘ishning barcha bosqichini tanish-bilish yoki pora orqali amalga oshirish odatiy hol edi.

Qog‘oz papka, uzoq navbat va orzular iztirobi...

Keling, bu davrdan o‘tganlar uchun iztirobli bir eslatma, bugungi kun yoshlariga etakdek bo‘lgan mazkur jarayonni yodga olamiz.

Har bir yoshning bu yo‘li pasport olish uchun navbatda turishdan boshlanardi. Qishloqda bolalar pasport uchun shaharga kelib, ba‘zan bir necha kun qolib ketar, ariza yozish, suratga tushish, turli ma‘lumotnomalar yig‘ish esa alohida mashaqqat edi.

Poliklinikadan tibbiy ma‘lumotnoma olish eng qiyin bosqichlardan biri bo‘lgan. Tongdan poliklinika oldida navbat boshlanardi. Har bir xonaga alohida navbat, har bir shifokordan alohida yozuv va muhr bosilgan, “sog‘lom” deb yozilgan qog‘oz uchun ba‘zida kun bo‘yi poliklinikada aylanib, oxiri hamshiraga “ataganini” berib, tibbiy ma‘lumotnomaga ega bo‘lardi.

Mahalladan “xarakteristika” olish esa o‘zgacha sinov edi. Ayrim mahallada raisni topish uchun ertadan kechgacha izlash kerak bo‘lardi. “Ertaga kel”, “bu yerga bor”, “falon oqsoqol bilan maslahatlash” kabi bahonalar bilan yoshlar bir necha kun sarsan yurardi. Shuning uchun har yili qabul vaqtida shaharda gavjumlik eng yuqori cho‘qqiga chiqardi.

Suratga tushish — abituriyentning so‘nggi bekat. Har bir universitet 8 ta surat talab qilar, u aniq o‘lchamda, og‘fonda va kostyum-galstuk bo‘lishi shart edi. Shuning uchun fotostudiya oldida navbat, bahs, hatto janjallar bo‘lardi. Ba‘zi abituriyentlar fotosalonda surat chiqishini ertalabgacha kutardi.

Hujjatlarni yig‘ib, barchasini g‘ilofga joylab bo‘lgach esa oliyog‘h oldidagi navbat hayotimiz mobaynidagi eng unutilmas kunlardan biri bo‘lardi. Ota-onalar o‘g‘il-qizining kelajagi, orzusi va intilishini oliyog‘h eshigi oldida uzoq vaqt himoya qilgan. Kimdir kechasi mashinada



kelib navbat kutgan, kimdir tanish orqali “navbat egallagan”.

Umuman, abituriyentlar imtihonlarga tayyorlanish o‘rniga o‘quv yurtlariga kelish va kishini toliqtiradigan kutish bilan vaqtini o‘tkazardi. 086 shakldagi tibbiy ma‘lumotnoma va harbiy xizmatdan vaqtincha ozod etilgani



(yoki tuman mudofaa bo‘limida hisobda turishi) ga doir ma‘lumotnoma olish uchun abituriyentlar tibbiy ko‘rikdan deyarli to‘liq qayta o‘tishi talab etiladi.

Yana xonama-xona yurish, navbat kutish, asabzuzarlik va korrupsiyaga duch kelinardi.

Abituriyentlik istagi yo‘lidagi mashaqqatli kunlar

Bu bosqich esa hujjat yig‘ishdan ham qiyin jarayonni talab qilardi. O‘sha davrdagi oliyog‘h qabul komissiyasi oldidagi manzara alohida hayot sahnasi. Har yili iyun oyining issiq kunlarida oliyog‘hlar oldi go‘yo bozordek gavjum bo‘lardi.

Har kimning o‘ziga xos tashvishi, orzusi, intilishlari bor, ammo o‘sha vaqtdagi maqsad bitta — qabul komissiyasiga hujjat topshirish. Oliyog‘h qabul komissiyasi ishga kirishgan kundan navbat boshlanardi. Kimdir “orqamdan turasan” deb qog‘ozga ism yozib qo‘yar, ba‘zilar



Navbatingiz kelganida, qabul komissiyasi xodimi har bir hujjatni sinchiklab tekshirardi. Bu yerdan bir urinishda o‘tib ketganlar juda kam bo‘lardi, deyarli bo‘lmadi, desak ham xato emas. Albatta, barcha abituriyentga “Hujjating to‘liq emas, ertaga kel”, degan gap aytilar va yoshlarning orzu-umidini bir zumda sindirib qo‘yardi.

Rasmi konvertga solish, qog‘oz papkaning ipi uzilmaganiga almashtirish, qo‘shimcha ikki yoki uchta qog‘oz qo‘shish kabi e‘tirozlar eng maydasi bo‘lib, ro‘parada shu xizmatlarni yo‘lga qo‘ygan “rektor راستasi”ga o‘tishga majbur bo‘linardi.

Eng achinarlisi, qabul komissiyasi oldidagi har bir abituriyentni asablari tamom bo‘lgan otasi yoki onasi kutardi. Farzandi hujjatini topshirib chiqqanida o‘qishga kirgandek xursand bo‘linardi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda boshlangan eng muhim va hayotiy islohotlardan biri o‘qishga onlayn hujjat topshirish tizimi joriy etilishi bo‘ldi.

imkoniga ega bo‘ldi. Boshqa hujjatlar — tibbiy ma‘lumotnoma, surat, harbiy guvohnoma talab qilinmaydigan tizim shakllandi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun hujjatlarini qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan abituriyentlarga Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali respublika davlat oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatiga o‘qishga kirish uchun hujjatlar topshirish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish tartibi belgilandi.

Hujjatga muvofiq, bu tartib ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan davlat oliy ta‘lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydigan bo‘ldi.

Ammo xorijiy, xususiy hamda harbiy oliy ta‘lim muassasalari, oliy ta‘lim muassasalari magistraturasi, test sinovlarisiz ijodiy imtihonlar orqali o‘qishga qabul qilinadigan oliy ta‘lim muassasalari bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari ushbu tartibni joriy etish majburiyatidan mustasno etib belgilandi. Shuningdek, ushbu tartib oliy ta‘lim muassasalariga xorijlik fuqarolar tomonidan hujjat topshirishga hamda O‘zbekiston ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan Davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali kirish test sinovlarida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish belgilanmagan davlat oliy ta‘lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydigan bo‘ldi.

Markazlar, Davlat test markazi hamda oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi axborot almashinuvi elektron raqamli imzoni majburiy tartibda qo‘llagan holda, faqat idoralararo elektron o‘zaro bog‘lanish orqali amalga oshiriladi.

Abituriyentlar o‘zining doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyidan qat‘i nazar, istalgan Davlat xizmatlari markaziga davlat xizmatidan foydalanish uchun murojaat qilishi mumkin bo‘ldi. Abituriyentlarga markazga murojaat etgan hududda tashkil etiladigan test sinovlarida ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

Qaror bilan belgilangan yangilanishlar, boshqacha aytganda, uzoq kutilgan qulayliklar ahamiyatini to‘la tushunish uchun o‘sha

davrdagi qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan bo‘lish kerak.

Albatta, hozir bu tarix, bu yoshlikning qaysidir ma‘noda og‘ir kunlari. Bugun har bir yosh smartfoni orqali bir necha daqiqada ichida hujjat topshirish imkoniyatiga ega bo‘larkan, bu davlatimiz rahbarining ta‘lim tizimidagi siyosiy irodasi va olamshumul islohotlari samarasidir.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining Yoshlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida tilga olingan juda ko‘plab yo‘nalishlarni bir maqolada qamrab olish imkonsiz. Birgina ta‘lim tizimi haqidagi fikrlari ortidan bugun tarixga aylangan mashaqqatli bosqichni yodga oldik.

Taqqosga arziydigan o‘zgarishlar

Yaqin o‘tmishimizdagi qiyinchiliklarga batafsil to‘xtalib o‘tgandan keyin yildan yilga yangi imkoniyatlar yaratilayotgan bugungi kun islohotlarini ham taqqoslab o‘tmasak bo‘lmaydi.

O‘tgan yilgi o‘quv yilidan oliy ta‘lim muassasalariga qabul jarayoni “Avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga o‘tkazildi.

Unga ko‘ra, abituriyentlar testni bir marotaba topshirdi va to‘plagan bali bilan dastlab OTMga, bali yetmagan taqdirda professional ta‘lim tashkilotiga kirish uchun tanlovda ishtirok etdi. OTMga qabul jarayoni ikki bosqichda o‘tkazildi. Birinchi bosqich ro‘yxatdan o‘tish va test fanlarini tanlash bo‘lsa, ikkinchisi test natijasi e‘lon qilingandan so‘ng ta‘lim yo‘nalishi va shaklini tanlashdan iborat bo‘ldi.

Oldinlari kvotalar OTMlar kesimida shakllangan bo‘lsa, bu yildan boshlab ta‘lim yo‘nalishlari kesimida e‘lon qilindi. O‘qishga kirish uchun minimal o‘tish bali ikki bosqichda belgilandi.

Amalda o‘qishga kirish uchun minimal o‘tish bali barcha yo‘nalishlar uchun 56,7 ball edi. Joriy o‘quv yildan bu bali ikki bosqichda oshiriladi. Sog‘liqni saqlash, huquq, biznes va boshqaruv yo‘nalishlari uchun o‘qishga kirish 94,5 ballidan, boshqa yo‘nalishlar uchun 75,6 ballidan boshlanadi.

Magistratura va doktoranturaga qabul jarayonida xorijiy tilni bilish to‘g‘risidagi sertifikat talabi yangillashirildi. Xususan, endilikda ta‘lim dasturini xorijiy tilda yakunlagan talabalar uchun sertifikat talabi bekor qilinadi.

Soha xususiyatidan kelib chiqib, madaniyat, san‘at, sport, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish, muhandislik ishi, qishloq xo‘jaligi, veterinariya, arxitektura va qurilish, fizika va tabiiy fanlar, transport xizmatlari yo‘nalishlari bo‘yicha sertifikat talabi bir pog‘ona — B1 darajasiga tushiriladi.

Sertifikat talabi xorijiy tillar yo‘nalishlarida C1 darajada, ayni fanlar, biologiya, matematika, huquq, jurnalistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va iqtisodiyot yo‘nalishlarida B2 darajada saqlanadi.

Davlat granti talabalar uchun ta‘lim granti va ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant shaklida ajratildi. Ijtimoiy-rag‘batlantiruvchi grant maqsadli qabul va imtiyoz asosida qabul qilingan talabalarga butun o‘qish davri uchun beriladigan bo‘ldi.

Ta‘lim granti esa har yili qaytadan taqsimlanadi. Ya‘ni endilikda grantga kirgan talaba yaxshi o‘qimasa, keyingi yil kontraktga tushishi mumkin. Yoki aksincha, kontraktga kirgan talaba yaxshi o‘qisa, keyingi yili grantga o‘tkaziladi.

Ma‘lum qilinishicha, grantni qayta taqsimlash bo‘yicha tartib o‘qishga yangi qabul qilinadigan talabalarga taalluqli bo‘ladi. Ya‘ni ilgari grantda o‘qiyotgan talabalarga o‘qishini tamomlaguncha bu qoida tatbiq etilmaydi.

Shuningdek, yangi tartibga ko‘ra, ta‘lim granti asosida tahsil olgan talabalarim o‘qishni tugatgandan so‘ng 3 yil ishlab berish majburiyati bekor qilinadi.

Hayot o‘zgardi. Davlat o‘z fuqarolari uchun barcha sohalarida keragicha imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Kechagi tizimning mashaqqatli, alamini totgan avlod bugungi o‘zgarishlarni ko‘rib, shukronasini aytayapti.

Ayni kunlarda imtihon topshirayotgan har bir yosh jiddiy o‘ylab ko‘rishi kerak, bunday qulaylik va imkoniyatlar osmondan tushmagan. Bunga yetib kelish uchun sinovlardan saboq chiqarib, yangi O‘zbekistonni qurayotgan me‘mor matonatin qadrlaydigan yetuk avlod millat kelajagini qurishga haqli!

TASHABBUS MOHIYATI UNING NOMIDA MUJASSAM

Ayni paytda yurtimiz bo‘ylab o‘quvchi yoshlarning yozgi ta‘til davrini mazmunli tashkil etish, madaniy, ma‘rifiy va sport tadbirlariga faol jalb qilish maqsadida “Dolzarb 90 kun” loyihasi amalga oshirilyapti. Yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, to‘g‘ri tarbiyalash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga qaratilgan mazkur loyiha yozgi ta‘tildan unumli foydalanishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Dilnoza HASANOVA,
tibbiyot fanlari doktori,
professor

yondashuvlarni joriy etish maqsadida ilgari surilgan strategik dasturga o‘xshataman. Tashabbusning asl maqsadi uning nomidayoq aks etgan, ya‘ni aniq bir vaqt — 90 kun ichida maksimal darajada samaradorlikka erishish.

Global iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning salbiy ta‘siri va shiddatli hayot tarzi yoshlar orasida turli kasalliklar ko‘payishi xavfini oshirmoqda. Ana shunday sharoitda ushbu tashabbus nafaqat kasalliklarni davolashga, balki ularning oldini olish, profilaktika qilishga, aholining tibbiy savodxonligini oshirish va o‘z salomatligi uchun mas‘uliyatni chuqurroq his etishga undaydi.

“Dolzarb 90 kun” ahamiyati yana bir necha omillarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Profilaktikaga ustuvorlik — loyiha doirasida ommaviy tibbiy ko‘riklar, skrininglar, emlashlar va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi tadbirlarga alohida e‘tibor berilyapti. Bu esa kasalliklarni erta aniqlash va rivojlanishining oldini olish imkoniyatini yaratyapti.

Tibbiy xizmat sifatini oshirish — “Dolzarb 90 kun” davomida tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlanyapti, xodimlar malakasi oshirilyapti. Bu bemorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish — ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va turli uchrashuvlar orqali aholiga sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechishning ahamiyati keng tushuntirilyapti. Bu esa har bir insonni o‘z

Dolzarb 90 kun



salomatligiga ongli ravishda yondashishga undamoqda.

Yoshlar salomatligini mustahkamlash — tashabbusning asosiy yo‘nalishlaridan biri yoshlar salomatligiga qaratilgan bo‘lib, ular

orasida giyohvandlik, chekish, ichkilikbozlik kabi zararli odatlarning oldini olish, sport va jismoniy tarbiyaga keng jalb etish orqali sog‘lom avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Uyg‘unlik — Buxoro davlat tibbiyot instituti xalqaro tibbiyot fakultetining “ustoz-shogird” maktabida nazariya va amaliyot uyg‘unligiga alohida e‘tibor qaratilyapti. “Dolzarb 90 kun” tadbirlari ayni shu tamoyillarni amalioyotda qo‘llash uchun ajoyib imkoniyat yaratdi. Talabalarimiz yurtimizning barcha hududlarida bo‘lib, tibbiy ko‘riklar o‘tkazishda, aholi bilan muloqot qilishda, kasalliklarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berishda faol ishtirok etmoqda. Bunday amaliy faoliyat yosh shifokorlarning nazariy bilimni mustahkamlabgina qolmay, ularning insoniylik fazilatlarini, jamiyatga bo‘lgan mas‘uliyatini oshiradi.

Yoz mavsumida ushbu tadbirlarning qizg‘in pallaga kirishi bejiz emas. Aynan shu davrda aholi, ayniqsa, bolalar va qariyalar salomatligiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Suv-tuz muvozanati buzilishi, oshqovon-ichak kasalliklari, yuqumli xastaliklar avj olishi mumkin bo‘lgan bu davrda tibbiy profilaktika va tekzor yordam juda muhim. Shogirdlarimiz ana shunday sharoitlarda o‘z bilim va mahoratini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Bu uch oylik faoliyat nafaqat muayyan muammolarni hal etadi, balki butun jamiyatda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Salomatlik — eng bebaho boylik. Yoshlarimizni sog‘lom, bilimli va g‘ayratli qilib tarbiyalasak, ular, shubhasiz, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

Tasviriy va amaliy sanʼat sohasi nafaqat xalqimizning maʼnaviy qiyofasi, balki milliy oʻzligimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Joriy yilning 1-iyul kuni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Tasviriy va amaliy sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaror sohani rivojlantirish va uni jahon miqyosida ommalashtirish yoʻlidagi muhim qadam boʻldi. Shu bilan birga, ushbu hujjat Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatining ustuvor yoʻnalishlarini belgilab berishda mustahkam asos vazifasini ham oʻtaydi.

Aslida, bu qaror, avvalo, tasviriy va amaliy sanʼatga qaratilgan beqiyos eʼtiborning yorqin ifodasidir. U milliy madaniy merosimizni asrash va uni yangi bosqichga olib chiqishga yoʻnaltirilgan istiqbolli yoʻlni boshlab berdi. Shuningdek, bu soha vakillarining oʻz salohiyatini toʻla namoyon etishi uchun yaratilgan keng imkoniyat va yosh avlodni milliy hamda zamonaviy sanʼat ruhida tarbiyalashning ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi.

Ushbu qaror soha mutasaddilari, olimlar, ijodkorlar va yoshlar hayotida yangi bosqichni boshlab, ijod ahlini yanada ilhomlantirmoqda. Buni soha mutaxassislari va tizim vakillari ishtirokida tashkil etilgan davra suhbat misolida ham yaqqol koʻrish mumkin.

Xoʻsh, tarixiy hujjat soha vakillari tomonidan qanday kutib olindi? Bu borada qanday fikrlar bildirildi, qanday eʼtirolar aytili va qanday takliflar ilgari surildi?



Akmal NURIDDINOV,
Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi raisi,
Oʻzbekiston xalq rassomi:

— Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan keng koʻlamli madaniy-maʼrifiy islohotlar jarayonida xalqimiz maʼnaviyatini, tarixiy qadriyatlarga asoslangan milliy tasviriy va amaliy sanʼatimizni yuksaltirish hamda mustahkamlashga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan, 18 ta band va chora-tadbirlar dasturidan iborat boʻlgan “Tasviriy va amaliy sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorni butun tizim uchun hayotbaxsh hujjat deb atash mumkin. Chunki u sohaning har bir vakili uchun ham moddiy, ham maʼnaviy jihatdan manfaatli boʻldi. Qaror, ayniqsa, isteʼdodli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash,

Sohani rivojlantirishning mustahkam asosi yaratilmoqda

badiiy taʼlim sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini ilgʻor xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, yangi zamonaviy texnologiyalarni qoʻllagan holda, kreativ loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarorning dastlabki bandida Badiiy akademiya faoliyatining asosiy ustuvor yoʻnalishlarni mujassamlashtirilgan. Unga koʻra, tasviriy va amaliy sanʼat hamda dizayn ustaxonalar fond-kutubxona, fotolaboratoriya, shuningdek, tasviriy va amaliy sanʼat, haykaltaroshlik asarlari, suvenirlar tayyorlash hamda taʼmirlash ustaxonalari tashkil etilishi istiqbolli islohotlarga mustahkam zamin yaratadi.

Hujjatning yana bir muhim jihati koʻplab ijodkorlarimizni moddiy qoʻllab-quvvatlash hamda Oʻzbekiston hududidagi shaharlarning estetik qiyofasini boyitish maqsadida tasviriy va amaliy sanʼat asarlari xarajatlarini qurilish smetasiga kiritish masalasining hal etilganidir. Yaʼni endilikda yurtimizda quriladigan bino va inshootlarning barchasi tasviriy va amaliy sanʼat asarlari bilan bezatiladi.

2026-yildan boshlab har yili tanlov asosida yosh rassom, haykaltarosh, dizayner, restavrator, sanʼatshunos va muzeyshtunoslarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishga yuborish amaliyotining yoʻlga qoʻyilishi ham eʼtiborga molik. Ushbu qaror orqali biz tasviriy va amaliy sanʼat sohasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratamiz. Endi ijodkor va uning ijodi uchun zarur sharoit, yuksak eʼtibor va eng muhimi, katta ishonch mavjud.

Toshkent Fotosuratlar uyida multimedia markazi, zamonaviy galereya binosi va uning hududida 15 mingdan ziyod noyob asarlarni saqlashga moʻljallangan fond-kutubxona, fotolaboratoriya, shuningdek, tasviriy va amaliy sanʼat, haykaltaroshlik asarlari, suvenirlar tayyorlash hamda taʼmirlash ustaxonalari tashkil etilishi istiqbolli islohotlarga mustahkam zamin yaratadi.

Hujjatning yana bir muhim jihati koʻplab ijodkorlarimizni moddiy qoʻllab-quvvatlash hamda Oʻzbekiston hududidagi shaharlarning estetik qiyofasini boyitish maqsadida tasviriy va amaliy sanʼat asarlari xarajatlarini qurilish smetasiga kiritish masalasining hal etilganidir. Yaʼni endilikda yurtimizda quriladigan bino va inshootlarning barchasi tasviriy va amaliy sanʼat asarlari bilan bezatiladi.

2026-yildan boshlab har yili tanlov asosida yosh rassom, haykaltarosh, dizayner, restavrator, sanʼatshunos va muzeyshtunoslarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishga yuborish amaliyotining yoʻlga qoʻyilishi ham eʼtiborga molik. Ushbu qaror orqali biz tasviriy va amaliy sanʼat sohasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratamiz. Endi ijodkor va uning ijodi uchun zarur sharoit, yuksak eʼtibor va eng muhimi, katta ishonch mavjud.

Adabiyot, sanʼat va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

MILLIY SANʼATIMIZ UCHUN HAYOTBAXSH HUJJAT

Yoddan chiqmaydigan uchrashuv

Marina BORODINA,
Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti professori:

— Joriy yilning 10-iyulida Prezidentimizning Shayxontohur tumanidagi Yangi Kamolon mahallasiga tashrifi doirasida davlatimiz rahbari bilan uchrashish sharafiga muyassar boʻldim. Uchrashuvda mahallada sanʼat, arxitektura va muhit sifatini yaxshilash masalalari xususida dildan suhbatlashdik. Muloqot chogʻida davlatimiz rahbariga tasviriy va amaliy sanʼatga qaratilayotgan yuksak eʼtibor, xalqimizning maʼnaviy dunyosi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladigan ushbu muhim qaror uchun minnatdorlik bildirdim.



Mazkur hujjat amaliy ishlarni mazmunan va hajman butunlay yangi bosqichga olib chiquvchi, soha istiqboli uchun tom maʼnoda

tarixiy ahamiyat kasb etuvchi muhim voqeilik boʻldi. Bu qaror biz uchun nafaqat huquqiy hujjat, balki yangi davrni boshlab beruvchi tarixiy sana sifatida qadrli. U milliy sanʼatimizni dunyoga olib chiqish uchun keng yoʻl ochib, sohani rivojlantirishni faqat moddiy qoʻllab-quvvatlash bilan cheklamay, balki uni taʼlim, infratuzilma, marketing, tadqiqot va eksport kabi yoʻnalishlar bilan bogʻlagan holda kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Qaror bandlariga muvofiq, davlat buyurtmasi asosida “Yangi Oʻzbekiston manzaralari”, “Ulugʻ mutafakkirlar” va “Zamonamiz qahramonlari” mavzularida ijodiy ishlar yaratish tizimi joriy etiladi. Shu bilan birga, tasviriy va amaliy sanʼat sohasi nafaqat ijod va estetikaga, balki fan, taʼlim va madaniyat taraqqiyotiga ham chuqur integratsiya qilinadi. Hujjatda ilmiy tadqiqotlar, arxivlashtirish, milliy maktablarni oʻrganish kabi masalalarga alohida oʻrin berilgan ham diqqatga sazovor.

Nuroniylilikning nurli bekati ehtiromdamiz

Bahodir JALOLOV,
Oʻzbekiston xalq rassomi:

— Qaror eʼlon qilinganiga qisqa fursat boʻlsam, uning hayajoni hamon qalbmni tark etgani yoʻq. Uzoq yillik faoliyatim davomida sohamizga bugungidek toʻkis sharoit yaratilganini koʻrmaganman. Biz doim ana shunday faxrlansa arziydigan hujjat qabul qilinishini kutardik. Maoshlarimizning ikki barobar oshirilgani ham koʻnglimizga koʻtarinki kayfiyat bagʻishladi. Yaqinda 80 yoshni qarshilayman, lekin hamon yoshlarga saboq berishdan, yangi asarlarni yaratish ustida tinmay izlanishdan toʻxtaganim yoʻq. Nuroniylilikning nurli bekati eʼzoz va ehtiromdamiz. Shuning oʻzi asl saodat.



— Qaror eʼlon qilinganiga qisqa fursat boʻlsam, uning hayajoni hamon qalbmni tark etgani yoʻq. Uzoq yillik faoliyatim davomida sohamizga bugungidek toʻkis sharoit yaratilganini koʻrmaganman. Biz doim ana shunday faxrlansa arziydigan hujjat qabul qilinishini kutardik. Maoshlarimizning ikki barobar oshirilgani ham koʻnglimizga koʻtarinki kayfiyat bagʻishladi. Yaqinda 80 yoshni qarshilayman, lekin hamon yoshlarga saboq berishdan, yangi asarlarni yaratish ustida tinmay izlanishdan toʻxtaganim yoʻq. Nuroniylilikning nurli bekati eʼzoz va ehtiromdamiz. Shuning oʻzi asl saodat.

Prezident qarorida Badiiy koʻrgazmalar direktoriyasining koʻrgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinib, jihozlanishi, bino hududida zamonaviy galereya qurilib, 40 ta ijodiy ustaxona tashkil etilishi va unda Yosh rassomlar markazi faoliyati yoʻlga qoʻyilishi ijod ahliga ulkan ilhom bagʻishlagan quvonchli xabar boʻldi. Markaziy koʻrgazmalar zalining multimedia raqamlashtirish interfaol ekspozitsiya uskunalari bilan taʼminlanishi esa nafaqat rassomlar asarlarining namoyishini, balki ular haqidagi kontentni jahon auditoriyasiga yetkazishga ham xizmat qilishi shubhasiz.

Ijodkorlarning izlanishi, yaxshi asarlarni yaratishi va farovon yashashi uchun barcha qulayliklar yaratilmoqda. Ilgari amaliy va tasviriy sanʼatga koʻp hollarda ikkinchi darajali soha sifatida qaralar edi. Soʻnggi yillarda tizimning munosib eʼtirof etilayotgani va qoʻllab-quvvatlanayotganini koʻrib turibmiz. Endi ana shu xalqchil hujjatga tayanib, vijdonan ishlashimiz kerak. Aslida, biz, ustozlar nafaqat ijod qilish, balki uni talib etish, arxivlashtirish, tizimga solish va dunyoga taqdim etish bilan ham shugʻullanishimiz joiz.

Oʻtmish va kelajak oʻrtasidagi koʻprik

Gulbaza QARSHIYEVA,
Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura sanʼati muzeyi direktori:



— Davlatimiz rahbarining sohaga oid qarorida Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura sanʼati muzeyi hududida qoʻshimcha bino qurilishi va yerdan milliy usulda qogʻoz tayyorlash boʻyicha yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan oʻquv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilishi haqidagi alohida band belgilangani biz uchun katta yangilik boʻldi.

Muzeyimiz xalq xotirasida saqlanayotgan ilm, yozma manbalar, miniatyura va xattotlik sanʼatining koʻp asrlik tadrijining yorqin ifodasini oʻzida jamlagan ulugʻ makon sanaladi. Muzey fondidagi ashyolar va kolleksiyalar oʻtmishning bebaho merosi, bugunning va kelajak avlodning ulkan boyligidir. Shuning uchun muzeylar oʻtmish va kelajak oʻrtasida koʻprik vazifasini bajaruvchi muqaddas maskandir.

Qarorning eng katta ahamiyati shundaki, milliy uslubda qogʻoz tayyorlash ustaxonasi faoliyatini yoʻlga qoʻyish uchun qoʻshimcha maxsus bino qurilishi muzey uchun yangi va keng imkoniyatlar eshigini

ochadi. Bu ustaxona taʼlim bilan chambarchas bogʻliq holda faoliyat yuritadi. Zero, muzey yoʻnalishi ham bevosita qogʻoz bilan bogʻliq boʻlib, miniatyura va xattotlik sanʼati oʻziga xos, maxsus qogʻozni talab qiladi. Shu bois, ustaxona taʼlim va amaliyotni bogʻlashda katta rol oʻynaydi.

Ushbu qaror madaniy boyligimiz, yaʼni milliy uslubda qogʻoz tayyorlash jarayoniga yangi hayot, hunarmandga hurmat, yosh avlodga esa ilhom baxsh etadi. Muzey nafaqat fondidagi ashyolarni saqlash, balki ularni xalqimiz va sayyohlarga tanitish, ommalashtirish, tarixiy merosni jonli madaniyatga aylantirishni ham oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Mazkur qaror ana shu ezuq maqsadga erishish yoʻlida mustahkam huquqiy va moddiy zamin yaratib berdi.

Zamonaviy sanʼat taʼlimi modeli

Anvar MAMAJONOV,
Oʻzbekiston Respublikasi sanʼat arbobi,
Oʻzbekiston xalq rassomi, Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi oʻqituvchisi:

— Prezidentimizning mazkur qarorini milliy madaniyatimiz kelajagini belgilaydigan muhim tayanch sifatida qabul qildik. Bu qaror sanʼat taʼlimiga yangi ruh va yangi imkoniyatlar olib keldi.

Qora qalam, siyoh va pat bilan chizish texnikalarida ijod qilib kelayotgan rassom sifatida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan navbatdagi qarordan benihoya mamnunman. Ijodim davomida Oʻzbekiston Respublikasi davlat gerbi muallifi boʻlish, 20 dan ortiq xalqaro koʻrgazmalarda gʻoliblikni qoʻlga kiritish baxtiga muyassar boʻldim, lekin shu paytgacha sohamizga bu qadar yuksak eʼtibor qaratilganini koʻrmagan edim.



Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi tasviriy sanʼatning yuragi, anʼana va mahorat markazi sanaladi. Bu dargohda yoshlarga nafaqat chizmalar chizishni, balki obraz yaratish madaniyatini ham oʻrgatamiz. “Ustoz-shogird” anʼanalarga asoslangan ijodiy maktabimiz nazariy bilim, texnik yondashuv va estetik tafakkur uygʻunligini mujassam etgan

Yosh avlodga muhim tayanch

Javohir NIYOZOV,
Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Rassomlik mahorat ustaxonasi stajyor-tadqiqotchisi:

— Davlatimiz rahbarining “Tasviriy va amaliy sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorini oʻqib, oʻrganar ekanman, qalbim cheksiz iftixor tuygʻulariga toʻldi. Biz, yoshlar uchun shunday tarixiy imkoniyat yaratilaptiki, buni soʻz bilan ifodalash qiyin. Ilmiy-ijodiy tadqiqotlarimiz qoʻllab-quvvatlanishining nazarda tutilgani sanʼatshunoslar uchun zoʻr yangilik boʻldi.

Yosh rassomlar markazida ijodiy ustaxonalar faoliyatining yoʻlga qoʻyilishi, ularning uyushma tavsiyasiga koʻra yosh ijodkorlarga muayyan muddatga tekin



foydalanish huquqi asosida berilishi, tegishli yoʻnalishlar boʻyicha toʻgaraklar tashkil etilishi kabi imkoniyatlar koʻplab mamlakatlarda mavjud emas. Ilgari koʻrgazma

tashkil qilish, asarlarni rasmiylashtirish uchun hatto yetarli resurslar yoʻq edi. Endi davlatimiz barchasiga keng yoʻl ochdi. Tanlovlar, stipendiyalar, xorijiy tajriba almashinuv dasturlari — bularning barchasi yosh ijodkorlarning istiqboli va kelajagi uchun yaratilgan imkoniyatlar beshigidir.

“ Bu qarorning qabul qilinishi yosh isteʼdodlarni qoʻllab-quvvatlash, milliy maktablarni saqlash hamda fan va taʼlimni integratsiyalash borasidagi muhim amaliy qadam boʻldi. Barcha imkoniyatlar, yaratilayotgan sharoitlar uchun koʻlimni koʻksimga qoʻyib, Prezidentimizga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Madaniyat taraqqiy etmasa, jamiyat yuksalmaydi

Ushbu muhim hujjat tasviriy va amaliy sanʼatni taʼlim bilan uzviy bogʻlash, ilmiy tadqiqotlarni ragʻbatlantirish, madaniy merosni asrash va har bir iqtidorli ijodkorning dunyo sahnasiga chiqishi uchun yangi va keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Shuning uchun ham soha fidoyilari va mutaxassislari bu qarorni milliy sanʼat uchun uzoq kutilgan tarixiy hujjat deya baholamoqda.

Endi tasviriy va amaliy sanʼat sohasi huquqiy asosga, moliyaviy koʻmakka va eng muhimi, davlat ishonchiga ega. Bu esa nafaqat sohaning, balki xalq ruhiyatining yuksalishiga xizmat qilib, sanʼatning fan bilan uygʻunligini taʼminlashda goʻzal

vosita boʻladi. Eng asosiysi, mazkur hujjat Oʻzbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini kuchaytirish, zamonaviy badiiy taʼlimni rivojlantirish, viloyatlarda sanʼat maktablari va markazlarini tashkil etish, milliy anʼanalarga asoslangan yangi rassomlik va amaliy sanʼat namunalarni yaratishga keng yoʻl ochadi. Bularning barchasi tasviriy va amaliy sanʼat sohasining yanada takomillashtirish, ijodiy qadrlangan, mehnati muhofaza qilingan va kelajakka ishonch bilan yoʻnaltirilgan sohaga aylanayotganidan yorqin dalolat.

Zero, mazkur islohotlarning asl mohiyatini Prezidentimizning quyidagi soʻzlari har qanday tavsifdan koʻra teranroq ifodalab

beradi: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va sanʼat taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholalanadi. Shu maʼnoda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz Oʻzbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim”.

“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri
Gulichehra DURDIYEVA
yozib oldi.